# УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

(Республика илмий-амалий конференция материаллари)

2017 йил 25 апрель



БУХОРО - 2017

qiluvchi o'yinlar paydo bo'lganligi har qanday kishini xavotirga solishi, shubhasi mana bugungi zamonaviy dunyo bolalarimizni nima bilan taqtirlayapti .

Biz farzandlarimizni virtual olamning ana shunday tajovuzlaridan asrashimiz kerak . Toliqqan ruxiyatni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun chin ma;noda kitob mutolaasi eng zarur omillardan biri hisoblanadi. Chunki har qanday zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlari kitob o'rnini bosmaydi. Mutaxasislarni takitlashicha, mutolaa jarayonida inso bosh miyasi faol ishlay boshlar ekan. Tabiiyki o'qish jarayonida kitobda tasvirlangan voqiya – hodisalar, asar qaxramonlarini xayolan tasavvur qila boshlaymiz. Demak, biz kitob o'qish orqali nafaqat quvonch va zavq, ma'naviy oziqa olamiz balki miyamizni mashq qildirib, uning faoliyat darajasini rivojlantiramiz ham. Badiiy asarga bag'ishlangan baxs – munozaralar esa o'quvchi fakir doirasining yanada kengayishi, aqilning charxlanishida muxim axamiyat kasb etadi. Muassasamizda tez tez ma'naviy – ma'rifiy tadbirla jumladan, olimlar, pedagoklar va siyosatshunoslar ishtirokida ilmiy konfrensiyalar, semenar treninglarni uyshtirayotganimiz ham ana shu ezgu maqsadlarga qaratilgan. "Qunoqlar va zukolar", "beshyulduz", "zakovat", "imkon-shou" sigari tadbirlarda esa yani kitoblar muxokama qilinib, kitoblar ko'rgazmasi tashkil etilmoqda. Bunday uchrashuvlarda asar mualliflarining taklif etilish o'quvchilarda kitobxonlikka bo'lgan qiziqish yanada ortishga sabab bolmoqda. Kitob bizga insoniyatni, dunyo xalqlarining qadriyatlarini, madaniyati, urf-odatlarini yashash tarzini o'rgatadi. Qolaversa, har bir milatga xos an'anlarini boshqa xalqlarga tanitishda ham muhim vosita hisolanadi.

Masalan, Abdulla Qodirining "O'tkan kunlar" romanida o'zbek xalqining urf-odatlari, milliy qadriyatlari an'analari yorqin bo'yoqlarda ifoda etilgan. Kitobxonlikning yana bir fodali xususiyati shunda ekanki, kuniga 30-40 daqiqa kitob o'qigan kish xotiraning susayishi kasaligiga chalinms ekan. Binobarin, kitob o'qish o'quvchini shaxs sifatida kamol toptirish, pedagogic faoliyatni muntazam takoillashtirib borish , qobiliyatini rivojlantirish vazifasini bajaradi.

Shunday ekan , yurtimiz kelajagi bo'lmish farzandlarimiz qo'liga imkon qadar ko'proq kitob tutqazaylik.

## KITOB – TAFAKKUR GULSHANI

*Toshov Z.S., Peshko' iqtisodiyot kolleji*

Har bir inson dunyoga kelar ekan, atrof-muhitga, o'zi o'sib-ulg'aygan jamiyatga tafakkur nigohi bilan boqib, undan ibrat oladi, xulosalar, fikr-tushunchalar bilan boyiydi va shularga tayangan holda inson bo'lib shakllanadi. Chinakam badiiy adabiyot ana shu fikru xulosalarni benihoya go'zal bir tarzda ifoda etadi, eng ta'sirchan, unutilmas voqealar vositasida teranlashtiradi, mustahkamlaydi. Har bir inson hayotida kitob muhim o'rin egallaydi,chunki kitob o'qigan inson ma'naviy etuk komil insonga aylanadi. Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda birinchi navbatda har bir ta'lim oluvchini va shu ta'lim oluvchi orqali uning oilasini kitobga nisbattan mehrini oshirishga har bir tarbiyalanuvchi dastak bo'lib xizmat qiladi. Kitobxonlik



madaniyatini rivojlatirish istiqbollari shunday muhim yo'l bo'lib xizmat qiladiki bunda xalqimizning bir biriga bo'lgan mehr oqibatini farovonligini yanada yuksaltrishga olib keladi. Bundan tashqari har bir inson o'zi bo'sh vaqtlarini behudaga sarflamasdan undan unumli foydalanishga ya'ni inson hayotida kitob ajralmas qism ekanligi yanada namoyon bo'ladi. Kitob milliy, madaniy va ma'naviy qadriyatlarimizni avloddan avlodga o'tish uchun ko'prik vazifasini bajaradi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan yangilanish va iqtisodiy islohotlar jarayonida ushbu zaminda yashovchi har bir inson o'z o'rni, aqli, zakovati va bilimi, ijodkorlik faoliyati bilan hissasini qo'shmog'i lozim, deb fikrimni yakunlayman.

## INSON KAMOLOTIDA KITOB MUTOLAASINING O'RNI

*Abdullayev Y.Z., BuxDU harbiy fakulteti, mayor*

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" (2017-yil 12-yanvar)gi farmoyishi kitob, kitobxonlik madaniyatining jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni va rolini yana bir yangi bosqichga ko'targanligi bilan izohlanadi. Mamlakatimiz rahbarining kitob, kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to'g'risida kuyunib gapirayotganliklarining chuqur falsafasi bor. Chunki, kitob mutoaalasining inson ruhiyati, ma'naviy dunyosiga ijobiy ta'siri qadimdan ma'lum. Kitob o'qishning foydali jihatlari to'g'risidagi kerakli maslahatlar internetning "AdMe.ru" sayti va boshqa manbalarda ham keltirib o'tilgan. Bular quyidagilar: asabni tinchlantiradi, uyqusizlikdan qutiltiradi, qalbni yumshatadi, miya faoliyatini yaxshilaydi, tushkunlikka qarshi kurashadi, maqsadni anglaysiz, qiyinchilikni yengasiz, xotirani va fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi, yozuvchilik qobiliyatini rivojlantiradi, chet tilini o'rganishni osonlashtiradi, tinglash qobiliyatini oshiradi, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi, munosabatlarni yaxshilaydi, qashshoqlikdan qutqaradi, darslarni yaxshi o'zlashtirasiz, jinoyatchilikning oldini oladi, yaxshilik qilishga undaydi.

Shuning uchun ham bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini ko'rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi. Arastu hakimdan Abu Ali Ibn Sinoga, Aflotundan-Abu Rayhon Beruniygacha, Jaloliddin Rumiydan- Alisher Navoiygacha, Sohibqiron Amir Temurdan-Muhammadsharif Gulxaniygacha yuzlab, minglab mutafakkirlarning shakllanishi, dunyoga tanilishi, zamonlar oshsada ahamiyati yo'qolmaydigan tadqiqotu kashfiyotlari faqat va faqat kitob orqali yuz berdi. Ularning bugungi avlod tomonidan chuqur o'rganilishi, ular ilmiy-ma'rifiy bisotiga bot-bot murojaat qilishning sababi ham mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan kitoblar tufaylidir.

Sharqda axloq-odob borasida buyuk asarlar yaratgan Muhammad Jabalrudiyning kitob haqidagi quyidagi firklariga bir quloq tutaylik: "Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir. Kitob fasohat, balog'atda, latofatda tengi yo'q, munofiqlikdan holi hamrohdir. Yolg'izlikda va g'amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday hamdamki, so'zlarida yolg'on va xato bo'lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik yetmaydi. U o'z do'stining dilini og'ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g'iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar yetadi. Kitobdek do'st ichida barcha ilmu hilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham "Kitob aql qal`asidir", deganlar". Haqiqatdan ham, kitob barchamizni ezgulikka undaydigan, oldimizda turgan barcha muammolarni hal etishga yordam beradigan kuchdir. Shuning uchun ham yurtimizda kitob bilan oshno bo'lgan, kitobni suygan, kitob yozgan, kitobni muqaddas bilib, qorachig'idek asraganlarni ziyoli deb ataganlar. Ziyoli-Nur tarqatuvchi, u o'zining xatti-harakatlari, faoliyati bilan jamiyatni nurlantiruvchi, ma`naviy-ijtimoiy barqarorlikni ta`minlovchilar hisoblangan. Kitob o'qish barchamizning ma`naviy olamimizni boyitadi, so'zlashuv madaniyatimizni oshiradi. Ayrim hollarda muqaddas o'zbek tilimizdagi ayrim vatandoshlarimiz "xizmati" tufayli dag'allashib, kambag'allashib borayotganligining oldini olish uchun ham kitob o'qish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.Tanqidiy tahlil va qat'iy tartib-intizom har bir rahbar faoliyatining asosiy mezoni bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston" 2017 y.
2. Mashriqzamin-hikmat bo'stoni. -Toshkent, 1997. 39-bet
3. Qodirov P. Til va el.-Toshkent, 2010, 127-bet.
4. Xalq so'zi. 2017-yil 13-yanvar
5. "AdMe.ru" sayti.

## KITOBXONLIK MADANIYATI – MA'NAVIY BARKAMOLLIK BELGISI

***Nigmatova M.M., BuxDU katta o`qituvchisi***
***G`aybullayeva M., Maktabgacha ta`lim yo`nalishi talabasi***

Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodning bilim-saviyasini oshirish, kitobga bo'lgan muhabbatini, ma'naviyatini yuksaltirish borasida yangi qadam tashlanib, kitobxonlik madaniyatini yanada oshirish, noshirlik, matbuot sohalarini rivojlantirish hamda mazkur yo'nalishda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ayni kunda kitob mutolaasi kerakmi, yo'qmi, degan savolni qo'yish xuddi tashna odamga suv ichasanmi, degan savolni berishga o'xshaydi. Zero, o'qish, ilm olishga intilish azal-azaldan xalqimiz fitratida mavjud. Davrlar evrilishi g'alati, bizlar kitob o'qishga mukkasidan ketgan 70-yillarda, ota-onalarimiz "Ko'p kitob o'qima, miyang suyulib ketadi", deb tanbeh berishardi. Bugungi yoshlarga kitob o'qishni gapirsang, ensasi qotadi. Ammo biz bu o'rinda yoshlarni mutlaqo ayblamoqchi emasmiz, agar jamiyatda bilim-ma'rifat, adabiyot qadr-qimmat topsa, albatta, aziz bolalarimiz kitobga qaytishlariga ishonaman. Bugun kitoblarni chop etish, ularni tarqatish tizimini takomillashtirish va eng muhimi, kitob chiqarish va kitobxonlikning davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotganidan quvonishimiz kerak.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi ta'bir joiz bo'lsa, hayotimiz, tafakkurimiz va ma'naviyatimizda g'oyat ulkan voqea bo'ldi. Ushbu sa'y-harakat milliy adabiyotimiz va ma'naviyatimiz ravnaqida katta siljishlarning debochasi bo'lishiga astoydil ishonib turibmiz.

Darhaqiqat, har bir inson dunyoga kelar ekan, atrof-muhitga, o'zi o'sib-ulg'aygan jamiyatga tafakkur nigohi bilan boqib, undan ibrat oladi, xulosalar, fikr-tushunchalar bilan boyiydi va shularga tayangan holda inson bo'lib shakllanadi. Chinakam badiiy adabiyot ana shu fikru xulosalarni benihoya go'zal bir tarzda ifoda etadi, eng ta'sirchan, unutilmas voqealar vositasida teranlashtiradi, mustahkamlaydi. Bir so'z bilan aytganda, adabiyot odam bolasida chin insoniy fazilatlarni shakllantiradi. Unutmasligimiz kerakki, shaxsiyati mazkur mezon va fazilatlardan mosuvo kimsa halol va yaxshi ishchi yoki xizmatchi tugul, tom ma'nodagi inson ham bo'la olmaydi. Fuqarolarida ushbu mezon va fazilatlar shakllanmagan jamiyatda esa sof ma'naviy-iqtisodiy taraqqiyotning bo'lishi mumkin emas. Bunday jamiyatni bir-birini aldovchi, talovchi, bir-birining haqini yeyishdan qo'rqmaydigan beshafqat olomon, desak, sira-sira xato qilmaymiz.

Achchiq bir haqiqatni tan olaylik, ayni paytda ko'pchilik mutolaa qilishga ajratiladigan vaqtini bemaza qovunning urug'iday ko'payib ketgan seriallarga, ko'ngilochar gazetalar, ularda bosilayotgan oldi-qochdi, badiiylikdan ming chaqirim yiroq "hikoya"larga sarflamoqda. Ular milliy va jahon mumtoz adabiyotiga mansub asarlarnigina emas, umuman har qanday kitobni agar u andak o'yga toldiradigan, tafakkurga chorlaydigan jiddiyroq bo'lsa, o'qishni xohlashmayapti.

Yana bir gap, bugungi kunda biz farzandlarimiz kitobdan uzoqlashib borayapti, degan gapga yopishib olib, bunda darrov zamonaviy texnika va texnologiyalarni, internetni ayblashga tushamiz. Holbuki, globallashayotgan dunyoda butun insoniyat texnikadan unumli foydalanmoqda, lekin ular kitoblarni, ayniqsa, mumtoz adabiyotni aslo chetga surib qo'yishayoganlari yo'q. Kitobxonlik darajasi borasida jahon mamlakatlari reytinglarini ko'rib chiqib, bunga ishonch hosil qilasiz. Xorijda ushbu muammoni hal qilish yo'llari avvalgidan qizg'inroq, jiddiyroq yo'sinda olib borilmoqda. Turli anjumanlar, muhokamalar, adiblar bilan uchrashuvlar, kitob bayramlari sifati ortib bormoqda. O'rta maktablar dasturiga mutolaa bo'yicha maxsus darslar kiritilmoqda. Bu darslarda o'quvchilarda kitobga muhabbat, matnni tushunib, to'g'ri talqin qilish, eslab qolish ko'nikma va malakalari shakllantirilmoqda. Buning natijasida AQSh, Yangi Zelandiya, Janubiy Koreya, Finlyandiya mamlakatlarida kitobxonlar soni ancha ko'paygan.

| | |
|---|---|
| **ЖАББОРОВ Э.** *XXI аср китобхони наздида ҳаёт талқини* | 74 |
| **QUDRATOV Sh.Y.** *Tarbiyaviy muvozanatni ta`minlashda kitobxonlik madaniyati* | 77 |
| **НОРОВ Н.Ф. ТОШОВ З.** *Китоб – маънавият кузгуси* | 78 |
| **ТЎРАЕВА Г.Б.** *Илмлилик етукликнинг бош мезонидир* | 79 |
| **РИЗАЕВ Б.Н., ҲАЙИТОВ Ж.Ш.** *Китоблар-беминнат, беғараз устод* | 81 |
| **XODJAYEVA S.S., SALOMOVA N.** *Kitob -ma`naviyat ko`zgusi* | 83 |
| **XODJAYEVA S.S., HAYDAROVA Sh.** *Olaming gultoji kitobdir, kitob!* | 85 |
| **НОРОВА А.М.** *Мутолаа маданияти* | 87 |
| **SHARIPOVA A.F.** *Kitob — tafakkur qanoti* | 88 |
| **ТОШОВ З, ХАМРОЕВ Ф.** *Китобхонлик - юксак маънавият белгиси* | 89 |
| **ТУРДИЕВ Т.С.** *Китоб — бебаҳо бойлик* | 90 |
| **IKROMOV R.A., SHARIPOV R.R.** *Kitob ma'naviy boyligimiz, kitobxonlik ma'naviyatimiz ziynati* | 91 |
| **ТУРДИЕВ Т.С.** *Китобхонлик маданияти - ўқувчининг етуклиги* | 93 |
| **SHOJONOV A., BAHRONOV X.** *Kitob mutolaasi madaniyati – ma'naviy barkamollik belgisi* | 94 |
| **БАКАЕВА Р., РАЗЗОКОВА Ш.** *Китоб ва замон тараққиёти* | 96 |
| **ЭРГАШЕВА Х, ЖУМАЕВА Н.** *Книги не дают мозгу расслабиться* | 97 |
| **АВЕЗОВА З.** *Китоб мутолааси хусусида* | 98 |
| **АВЕЗОВА Д.** *Китоб –маърифат дунёси* | 99 |
| **RO'ZIYEVA S.H.** *Buyuk Sharqning kitobxonlik tarixi va kelajagi* | 101 |
| **ADIZOV S.T.** *Kitob –o'zligimiz oynasi* | 103 |
| **АТОЕВА М.** *Китоб–муъжизаларга чорлайди* | 105 |
| **МАСТОНОВ К.Х., КАРИМОВ Б.Х.** *Китобхонлик маданиятини такомиллаштиришда мулоқот маданиятининг ўрни* | 106 |
| **КАРИМОВ Б.Х., МАСТОНОВ К.Х.** *Тил ва тафаккур тараққиётида китобнинг ўрни* | 108 |
| **HOJIYEV B.R., NURILLOYEV N., HOSILOV M.** *Kitobxonlik – ma'naviyat kaliti* | 109 |
| **ISMATOV B.B.** *Kitob o'qishning o'ziga xos qoidalari* | 111 |
| **ЯКУБОВА С., РАХМАТОВА Н.** *Биз билмаган тарих* | 112 |
| **САДОВА Д.** *Китоб – ақл идрок қуёши* | 114 |
| **САИДОВА Ш.** *Қалб кўзини очгувчи зиё* | 116 |
| **РАЖАБОВА З.** *Бешикда теккан кафанда кетар...* | 117 |
| **ЯНГИБОЕВА У.** *Олдинда ёнган машъал* | 118 |
| **САКСОНОВ Р.** *Китоб ила дунё очилади* | 120 |
| **САИДОВА М.** *Китоб–билим манбаи* | 121 |
| **ЁРИЕВА З.** *Сўз – мулоқот калити* | 123 |
| **AMONOVA O., SAIDOVA D.** *Kitob ma'rifat o`chog`i* | 124 |
| **ТЎЛАГАНОВА С., ХАСАНОВА С.** *Ёзувчи ижодини ўрганиш муаммолари* | 125 |
| **КАРИМОВА К.С.** *Китоб мутолааси ўқувчини инсон сифатида камол топшириш, қобилиятни ривожлантириш манбаи* | 128 |





| | |
|---|---|
| **ХОЖИЕВА З.** *Китоб - гўзаллик ва эзгулик элчиси* | 130 |
| **НАЖМИДДИНОВА М.И.** *Мутоала қалбни юмшатади* | 132 |
| **МУХИДОВ О.** *Китобхонлик маданиятини ошириш - давр талаби* | 134 |
| **МУСТАФОЕВ З., МАҲМУДОВ Х.** *Китоб ва китобхонлик – инсон маънавияти кўзгуси* | 135 |
| **NOROV N.F., HAYITOV B.R, Ne'matov Sh.** *Kitobxonlik tafakkurni boyitadi, ma'naviyatni yuksaltiradi* | 137 |
| **TOSHOV Z.S.** *Kitob – tafakkur gulshani* | 138 |
| **ABDULLAYEV Y.Z.** *Inson kamolotida kitob mutolaasining o'rni* | 139 |
| **NIGMATOVA M.M. G'AYBULLAYEVA M.** *Kitobxonlik madaniyati – ma'naviy barkamollik belgisi* | 140 |
| **ЖУМАЕВ Р.Х.** *Санъати мутолиаи китоб* | 143 |
| **ISTAMOVA G.X.** *Kitob – ma'naviyat sarchashmasi* | 146 |


## 2-ШЎЪБА

## УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМДА ЎҚУВЧИЛАРНИ МАЪНАВИЙ-РУҲИЙ КАМОЛОТИНИ ЮКСАЛТИРИШДА БАДИИЙ АСАР ЎҚИШНИНГ ЎРНИ


| | |
|---|---|
| **САИДОВ А.И., САИДОВА О.Т.** *Соғлом турмуш тарзи тушунчасини шакллантиришнинг психологик асослари* | 149 |
| **ЖАМИЛОВА Б.** *Болалар китобхонлиги: анъана ва такомил* | 151 |
| **RO'ZIYEVA M.Y., HUSENOVA A.Sh.** *Bola ruhiyatida ertakning roli* | 155 |
| **СОБИРОВА Г.Н.** *Тайёрлов гуруҳ болаларига таълим бериш ва жисмоний ривожлантиришда мусиқага оид китобларнинг аҳамияти* | 158 |
| **ЖАМИЛОВА Б.С., РАЖАБОВА Н.** *Болалар китобатчилиги - китобхонлик асоси* | 159 |
| **HAYDAROVA M.D.** *Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning, holatini o'rganish* | 162 |
| **TO`RAYEVA Sh.N.** *Kitobxonlikka mehr uyg'otishning yo'llari va vositalari* | 163 |
| **HOSILOV M.G.** *Maktabgacha yoshdagi kichik bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish* | 164 |
| **ОТАЕВА Д.Н., СОБИРОВА Г.Н.** *Маънавий – маърифий ишлар самарадорлигини оширишда китобхонликнинг аҳамияти* | 167 |
| **ЮЛДАШЕВА М.М.** *Книги как средства формирования информационной культуры ребенка* | 168 |
| **XOLOVA G.K.** *Maktabgacha t`lim yoshidagi bolalarni kitobga bo`lgan e`tibori va mehrini qozonish* | 169 |
| **МУСТАФОЕВ Б.** *Китоб – таълим ва тарбия воситаси* | 170 |
| **ХАМИДОВ Х.** *Нақши мутолиа дар самаранокии таълим* | 172 |
| **САИДОВ Б., ЭРГАШЕВ Б.** *Библиотека культурное воспитание учеников* | 175 |
| **РАХМАТОВА С.М.** *Золотая полка книг* | 176 |
| **Чўраев Б.** *Истифодаи интернет дар китобхонаҳои бачагона* | 179 |
| **MAHMUDOV B.X.** *Kitob mutolaasi madaniyatini takomillashtirish* | 181 |